ISSN:2828-6235
Impact factor:13.77

International Journal of Literature and Language Studies(IJLLS)

THE PRAGMATIC FUNCTIONS OF PARTICALS IN CHINESE

Dilmira Mamidova

TDSHU, Xitoyshunoslik oliy maktabi

Magistratura1-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: DSc. Dotsent **O.M. Ochilov**

Doi: https://doi.org/10.5281/zenodo.23722109

Abstract. This article analyzes modal particles, particularly modal words and sentence-final particles in Chinese, such as ma (嘛), ne (呢), ba (吧), and a/ya (啊/呀), as well as their pragmatic functions. The study considers modal particles not merely as grammatical units that change the meaning of a sentence, but as linguistic means expressing the speaker's attitude, emotional state, purpose of inquiry, caution, politeness, and communicative strategy.

Keywords: Chinese language, modal particles, modality, pragmatic function, emotional expressiveness, speech act.

Annotatsiya: Ushbu maqola modal yuklamalar, xitoy tilidagi modal so‘z va yuklamalarning, xususan, gap oxirida qo‘llaniladigan *ma* (嘛), *ne* (呢), *ba* (吧), *a/ya* (啊/呀) kabi vositalarning pragmatik vazifalari tahlil qilinadi. Tadqiqotda modal yuklamalar faqat gap ma’nosini o‘zgartiruvchi grammatik birliklar emas, balki gapiruvchining munosabati, hissiy holati, so‘rov maqsadi, ehtiyotkorligi, muloyimligi va nutqiy strategiyasini ifodalovchi til vositalari sifatida ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: xitoy tili, modal yuklamalar, modallik, pragmatik vazifa, emotsional-ekspressivlik, nutqiy akt.

Аннотация. В данной статье анализируются модальные частицы, в частности модальные слова и частицы китайского языка, используемые в конце предложения, такие как ма (嘛), нэ (呢), ба (吧), а/я (啊/呀), и их прагматические функции. В исследовании модальные частицы рассматриваются не только как грамматические единицы, изменяющие значение предложения, но и как языковые средства, выражающие отношение говорящего, его эмоциональное состояние, цель вопроса, осторожность, вежливость и речевую стратегию.

Ключевые слова: китайский язык, модальные частицы, модальность, прагматическая функция, эмоционально-экспрессивность, речевой акт.

Xitoy tili dunyodagi boshqa agglyutinativ yoki flektiv tillardan farqli o‘laroq, amorf tillari oilasiga kiradi. Ushbu tilning sintaktik va semantik maydonida gapning emotsional-ekspressiv bo‘yog‘ini, so‘zlovchining shaxsiy munosabatini hamda muloqotdagi pragmatik maqsadni ifodalashda modal yuklamalar — 语气词 (yuy chi si) asosiy ro‘lni o‘ynaydi.

Sharqshunoslik va sinologiya sohasida xitoy tili grammatikasining nazariy asoslari xitoylik va xalqaro tilshunos olimlarning monografiyalari hamda fundamental izlanishlarda keng yoritilgan va ommaga taqdim etilgan.

Modal yuklamalar — bu gapda voqea yoki fikrning ehtimolligi, zarurati, ruxsati, majburiyati, qobiliyati yoki xohishini bildiruvchi til vositalaridir. F.R.Palmer ta’rifiga ko‘ra:

“Modallik voqeani ifodalovchi fikrning holatiga tegishlidir[1]” degan fikrni bildirgan. Maqolada modallik quyidagicha ta’riflanadi: “Voqea yoki fikrning holatiga munosabat bildirish. Ya’ni modal yuklama gapda aytilgan narsaning rost yoki yolg‘onligi, imkoniyati, zarurati yoki bajarilishi kerakligini ko‘rsatadi”.

Omukeyeva J.A. o‘zining dissertatsiyasida “Modallikni ifodalashning asosiy leksik vositasi sifatida turli darajadagi ishonchlilikni, mantiqiy va hissiy bahoni ifodalovchi hamda kirish so‘z vazifasini bajaruvchi modal so‘zlar tan olingan[2]”ligini keltirib o‘tgan.

Xitoy tilshunosligi tarixida modal yuklamalarni yakka so‘z turkumi sifatida ajratish va ularning semantikasini o‘rganish bo‘yicha poydevor ilmiy ta'limotlar yaratilgan.

Luy Shusyan (吕叔湘) o‘zining （现代汉语八百词）— “Zamonaviy xitoy tilida 800 so‘z[3]”asarida modal yuklamalarni guruhlab, ularning gap oxirida kelib, so‘zlovchining ruhiy holati va emotsional munosabatini ko‘rsatish xususiyatini batafsil tahlil etadi.

Ju Dedian (朱德熙) o‘zining (语法讲义） “Grammatika ma'ruzalari[4]” nomli fundamental darsligida modal yuklamalarni predikativ birliklarning ajralmas yakuniy unsuri sifatida tavsiflaydi. Chao Yuanren o‘zining (赵元任) “Xitoy tilining og‘izaki grammatikasi[5]” monografiyasida xitoy tilidagi modal yuklamalarni intonatsiya bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan “gap yakunlovchi zarralar” sifatida o‘rgangan. Chao Yuanren ta’kidlaganidek, xitoy tilida intonatsiya to‘nlar bilan cheklangani sababli, emotsional urg‘u va ritorik maqsadlarni ifodalash aynan modal yuklamalarga tushadi.

Pragmatik vazifa — bu til vositalarining so‘zlovchi maqsadi, muloqot vaziyati va uni tinglovchiga ta’sir ko‘rsatish nuqta’i nazaridan bajaradigan vosita hisoblanadi. Pragmatika nutqiy aktning kontekstga bog‘liqligini, ya’ni “kim, kimga, qanday maqsadda va qanday sharoitda gapirishi ” kabi masalalarni o‘rganadi. Xitoy tilida ham modal yuklamalar gap oxirida kelib, gapning asosiy mazmunini emas, balki uning kommunikativ ohangini va gapiruvchining maqsadini ifodalaydi. Ular so‘rov, taklif, taxmin, hayajon yoki ta’kid kabi pragmatik vazifalarni bajaradi. Pragmatik nuqta’i nazardan modal yuklamalar faqat grammatik belgi emas, balki gapiruvchining tinglovchiga munosabatini, gapirish maqsadini va muloqot strategiyasini ifodalovchi vositalardir. Zamonaviy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ular diskurs belgilari kabi gapning mazmunini kontekstga bog‘lab, muloqotni ravon, aniq va tushunarli qiladi.[6]

Luy Shuxiang 语气 tushunchasini keng va tor ma’nolarga ajratgan: keng ma’noda u gap mazmuni va kuchini, tor ma’noda esa nutq maqsadi, intonatsiya va yuklamalarni o‘z ichiga oladi[7]. Ju Desi esa yuklamalarni gap tuzilishidagi yordamchi elementlar sifatida tahlil qilib, ularning sintaktik mavqei va semantik vazifasini ko‘rsatgan[8].

Masalan: ma (嘛) yuklamasi tinglovchiga ma’lumotning uning ongida allaqachon mavjud yoki unga yaqin ekanini bildirib, gapni kontekstga bog‘laydi va tushunishni osonlashtiradi.

---

[1] Palmer F. R. Mood and Modality. 2nd ed. Cambridge, UK: Cambridge University Press, 2001. P. 1.
[2] Омукеева Ж. А. Способы и средства выражения модальности в языке...: дисс. ... канд. филол. наук. — Бишкек, 2004. — С. 16–18.

[3] 吕叔湘 (Lǚ Shūxīan). 现代汉语八百词。 北京: 商务印书馆 (Pekin: Commercial Press), 1980 年，668 页。
[4] 朱德熙 (Zhū Dédīan). 语法讲义 。北京: 商务印书馆 (Pekin: Commercial Press), 1982 年, 231 页。
[5] Chao, Yuen Ren. A Grammar of Spoken Chinese. Berkeley: University of California Press, 1968.
[6] Carmen Lepadat, “The modal particle ma 嘛: theoretical frames, analysis and interpretive perspectives”, Quaderni di Linguistica e Studi Orientali, № 3 (2017).
[7] 吕叔湘：《中国文法要略》，北京：商务印书馆，1982 年，463 页。
[8] 朱德熙：《语法讲义》，北京：商务印书馆，1982 年, 231 页。

Quida modal yuklamalarning gapdagi pragmatik vazifalariga misollar keltirib o‘tilgan:

Taklif berish, yumshatilgan buyruq va taxmin qilish yuklamasi: 吧 (ba)

吧 (ba)yuklamasi taklif berish, yumshatilgan buyruq yoki taxmin qilishni ifodalaydi.

Misollar:

我们走吧。 — “Ketaylik-chi.” (taklif)

你知道吧。 — “Menimcha, sen bilasan.” (taxmin)

好吧。 — “Mayli, bo‘ladi, kelishdik.” (rozilik)

Pragmatik jihatdan 吧 (ba) gapiruvchining qat’iy emas, balki muloyim va taklif ohangida gapirayotganini ko‘rsatadi..

Vaziyatni ta’kidlash va savolga yo‘naltirish: 呢 (ne)

呢 (ne) yuklamasi holatni ta’kidlaydi, savolga yo‘naltiradi yoki davom etayotgan jarayonni ko‘rsatadi.

Misollar:

你在做什么呢？ — “sen nima qilyapsan-a?”

他还没来呢。 — “U hali kelmagan-mi.”

你呢？ — “Sen-chi?”

Pragmatik jihatdan 呢 (ne) suhbatni yumshatadi va e’tiborni holatga qaratadi.

Hissiyotni kuchaytirish va ifodalash yuklamasi: 啊 (a), 呀 (ya)

Bu yuklamalar hayrat, quvonch, ogohlantirish holatini ifodalaydi.

Misollar:

多好啊！ — “Qanday yaxshi-a!”

你看呀！ — “Qarang-chi!”

Ushbu misollardagi har bir yuklama “kim tomonidan kimga qarata aytilayotganiga, qay holatda, qanday hissiyot va emotsiya bilan ifodalanishi”ga qarab bir necha xil tarjima berishi mumkin.

Luy Shusyan (吕叔湘) o‘zining (现代汉语八百词) — “Zamonaviy xitoy tilida 800 so‘z” asarida modal yuklamalar pragmatik jihatdan “gapning emotsional kuchini oshiradi va gapiruvchining hissiy kayfiyatini ifodalaydi[9]” degan fikrni ilgari surgan.

Xulosa qilib aytganda xitoy tilidagi modal yuklamalar gapning umumiy mazmunini emas, balki uning kommunikativ ohangini va gapiruvchining maqsadini ifodalaydi. Ular so‘rash, taklif berish, taxmin qilish, hayajonni ifodalash, ta’kidlash va suxbatni boshqarish vazifalarini bajaradi. tilshunoslarning asarlari va zamonaviy pragmatik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, modal yuklamalar xitoy tili grammatikasining ajralmas bo‘lagi bo‘lib, ularni to‘g‘ri qo‘llash tabiiy va aniq nutq uchun zarurdir. Xitoy tilidagi modal yuklamalarning pragmatik vazifalari bu shunchaki grammatik xususiyat emas, balki muloqotning ijtimoiy-psixologik muvozanatini saqlovchi til vositadir. Chao Yuanren, Luy Shusyang, Ju Dexi va Ju Dediyan kabi yirik sinolog tilshunoslarning asarlari va zamonaviy pragmatik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, modal yuklamalar xitoy tili grammatikasining ajralmas bo‘lagi ularni to‘g‘ri qo‘llash tabiiy va aniq nutq uchun zarur hisoblanadi. Modal yuklamalarni pragmatik jihatdan to‘g‘ri qo‘llash nutqiy aktlarning samaradorligini oshiradi, takalluf normalariga rioya qiladi va so‘zlovchining niyatini tinglovchiga to‘liq va aniq yetkazadigan bosh mezon hisoblanadi.

[9] 吕叔湘主编：《现代汉语八百词》，北京：商务印书馆，1980 年,第 14-16。

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Palmer F. R. Mood and Modality. 2nd ed.
2. Омукеева Дж. А. Модальные слова в русском языке и методика их изучения.
3. 吕叔湘 (Luy Shusyan). 现代汉语八百词 (Zamonaviy xitoy tilida 800 so‘z).
4. 朱德熙 (Ju Dedyan). 语法讲义 (Grammatika ma'ruzalari).
5. Chao, Yuen Ren. A Grammar of Spoken Chinese.
6. Carmen Lepadat, “The modal particle ma 嘛: theoretical frames, analysis and interpretive perspectives”.
7. 吕叔湘: “中国文法要略”.
8. 朱德熙： “语法讲义”.
9. 吕叔湘主编： “现代汉语八百词”.